

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkirona, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Batoryaliyevna ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Anorqulov Sanjar Iskandarovich

PhD, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

Email: s.anorqulov@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734094>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada toponimlarning kognitiv-lingvistik talqini, toponimik konseptning mazmuni, tuzilishi, lingvokulturologik xususiyatlari, assotsiativ maydoni, semantik periferiyasi va milliy-madaniy identitet shakllanishidagi oʻrni atroflicha yoritiladi. Toponimlar faqat geografik obyektlarni nomlash vositasi emas, balki tarixiy xotira, madaniy meros, mental stereotiplar va psixokognitiv tushunchalarning kodlangan shakli ekanligi ilmiy asosda koʻrsatib beriladi. Maqolada toponimik konseptning yadro-periferiya modeli, konseptual maydon elementlari, etimologik qatlamlari, xalq ongidagi mental assotsiatsiyalari va lingvokulturologik talqin metodlari batafsil tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: toponim, konsept, toponimik konsept, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, etimologiya, semantik maydon, mental xarita, milliy identitet.

Аноркулов Санжар Искандарович

PhD, доцент Самаркандского государственного

института иностранных языков

Email: s.anorqulov@gmail.com

ТОПОНИМИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне освещаются когнитивно-лингвистическая интерпретация топонимов, содержание и структура топонимического концепта, его лингвокультурологические особенности, ассоциативное поле, семантическая периферия и роль в формировании национально-культурной идентичности. Показано, что топонимы являются не только средствами называния географических объектов, но и закодированной формой исторической памяти, культурного наследия, ментальных стереотипов и психокогнитивных представлений. В статье подробно анализируются ядерно-периферийная модель топонимического концепта, элементы концептуального поля, его этимологические слои, ментальные ассоциации в народном сознании и методы лингвокультурологической интерпретации.

Ключевые слова: топоним, концепт, топонимический концепт, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, этимология, семантическое поле, ментальная карта, национальная идентичность.

Anorkulov Sanjar IskandarovichPhD, Associate Professor of
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Email: s.anorqulov@gmail.com**TOPONYMIC CONCEPT IN LINGUISTICS AND ITS MAIN CHARACTERISTICS****ABSTRACT**

This article provides a comprehensive analysis of the cognitive-linguistic interpretation of toponyms, the content and structure of the toponymic concept, its linguocultural features, associative field, semantic periphery, and its role in shaping national and cultural identity. It is demonstrated that toponyms are not only means of naming geographical objects but also encoded forms of historical memory, cultural heritage, mental stereotypes, and psychocognitive representations. The article examines in detail the core-periphery model of the toponymic concept, the elements of its conceptual field, its etymological layers, mental associations in collective consciousness, and the methods of linguocultural interpretation.

Keywords: toponym, concept, toponymic concept, linguoculturology, cognitive linguistics, etymology, semantic field, mental map, national identity.

Kirish. Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikning kognitiv paradigmasi shakllangach, til birliklarining inson ongndagi konseptual tuzilmalari, inson tajribasi va bilish jarayonlaridagi oʻrni yangi ilmiy yondashuvlar orqali izohlanmoqda. Konsept kategoriyasi hozirgi zamon lingvistikasining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Konsept — bu til obrazlarining, madaniy xotiraning va kognitiv tajribaning birlashgan mental modeli boʻlib, u milliy dunyoqarashni shakllantiradi.

Toponimlar ham konseptlar qatori inson ongida mustahkam oʻrin egallagan mental birliklardir. Ular nafaqat geografik obyektni bildiradi, balki shu obyekt bilan bogʻliq tarixiy voqealar, afsonalar, etnik jarayonlar, madaniy ramzlar va xalq tafakkuridagi stereotiplar majmuasi sifatida namoyon boʻladi. Shu sababli toponimlarni konseptual tahlil qilish lingvokulturologiya, etnolinguistika, semantika va mental lingvistikaning kesishgan nuqtasida oʻrganiladi. Shu sababli bugungi kun tilshunoslari bu baxsli holatga turlicha yondashmoqdalar.

Toponimik konsept masalasining dolzarbligi shundaki, u nafaqat geografik nomlar tizimini, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy identiteti va konseptual dunyoqarashini ham oʻzida mujassamlashtiradi. “Samarqand”, “Buxoro”, “Xorazm”, “Sirdaryo”, “Qoratepa”, “Qizilqum” kabi toponimlar oʻzbek xalqining ongida aniq madaniy mazmunlar bilan bogʻlangan. Yuqorida koʻrsatilgan misollarni sharxlar ekanmiz, oltita misoldan uchta qadimiy va tarixiy joy nomi hisoblanib, har qanday insonga bu nomlar haqida gapirar ekansiz, tabiiy holki bir marta emas bu nomlar borasida bir necha bor eshitgan va yetarlicha maʼlumotga ega hisoblanadi. Bu nomlarni konsept sifatida shakllanishiga bilamziki yuz asrlar kifoya qilmagan.

Maqolaning maqsadi — toponimik konseptning mazmuni, tuzilishi, lingvokulturologik ahamiyati va konseptual xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishdan va tahlil qilishdan iboratdur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jaxon tilshunosligida toponimlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish XIX asr oxirlaridan boshlab shakllangan. V.A. Nikonov, A.V. Superanskaya, E.M. Murzaev kabi olimlar toponimlarning kelib chiqishi, struktur-semantik xususiyatlari va tarixiy taraqqiyotini oʻrgangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tillarning madaniy komponentlarini tahlil qiluvchi yoʻnalish sifatida lingvokulturologiya degan maxsus termin shakllandi. Bu yoʻnalish vakillari (V.A. Maslova, Yu.S. Stepanov, A. Vezhbetskaya) toponimlarning madaniy kod sifatidagi xususiyatlarini oʻrgandilar.

Oʻzbek toponimikasida E.Begmatov, M.Sodiqov, O.Boʻronov, T.Nafasovlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan toponimlar inson ongndagi mental modellarni aks ettiruvchi konseptlar sifatida tadqiq etilmoqda. Lakoff va Johnsonning “Metaphors We Live By” asari konseptual tizimning metaforik tabiatini ochib berdi. Shu asosda toponimlarning metaforik, ramziy, assotsiativ xususiyatlarini ham oʻrganish imkoniyati paydo boʻldi.

Ushbu maqolada biz quyidagi tadqiqot metodlarga tayangan holda bir necha tahlil usullarini ko'rib chiqamiz:

Konseptual tahlil — toponimlarning yadro va periferiyasini aniqlash. Semantik maydon metodi — joy nomlari bilan bog'liq barcha ma'no qatlamlarini aniqlash. Lingvokulturologik tahlil — toponimlarning madaniy konnotatsiyalarini izohlash. Assotsiativ eksperiment — toponim inson ongida qanday assotsiatsiyalar uyg'otishini aniqlash. Etimologik tahlil — tarixiy manbalar asosida toponim kelib chiqishini izohlash.

Natija va muhokamalar. Oxirgi yillarda zamonaviy tilshunoslikda toponimik konsept tushunchasi keng muhokama qilinib kelmoqda. Toponimik konsept — bu ma'lum bir geografik nom (toponim) bilan bog'liq bo'lgan mental model bo'lib, u:

- geosiyosiy ma'lumotlar,
- tarixiy xotira,
- etnik identitet,
- madaniy qadriyatlar,
- psixologik assotsiatsiyalar kabi bir qancha elementlardan tashkil topadi.

Yuqorida ko'rib chiqqan misollarimizdan bir "Samarqand" konseptini tahlil qiladigan bo'lsak, bu joy nomi o'zbek xalqi ongida:

- Amir Temur,
- Registon,
- qadimgi sivilizatsiya markazi,
- astronomiya,

madaniyat o'chog'i kabi tasavvurlar bilan uyg'unlashgan. Har qanday O'zbekistonda yashaydigan kishi borki bu nom haqida to'liq ma'lumot bor. Xuddi shuningdek toponimik konseptning yadro-periferiya modelini ham bir tahlil qilamiz. Bunda yadro qismi toponimning obyektiv, o'zgaras qismi bo'lib, etimologik shakllangan, ma'noviy mazmun bag'ishlaydigan qismi hisoblanadi:

- geografik obyekt turi (shahar, daryo, tog'),
- joylashuvi,
- funksional vazifasi.

Periferik qism: tarixiy voqealar, afsonalar, diniy-mifologik tushunchalar, xalq og'zaki ijodi, stereotiplar.

Misol uchun Surxandaryo viloyatida joylashgan "Childuxtaron" tepaligini ko'rib chiqamiz. Xalq o'gzaki ijodiga tayanadigan bo'lsak bu shahardan tashqarida tepalikda shoxning qizi, malika, o'zining yordamchilari va dugonalari bilan yashagan, ular qirq kishi bo'lganligi uchun bu joyni nomi "Childuxtaron" deb nomlanib ketgan.

Toponimlarning konseptual maydoni.

Ushbu maydon toponimning barcha madaniy, tarixiy, semantik, assotsiativ qatlamlarini qamrab oladi.

Joy nomlarining semantik xarakteristikasi. Toponimlar semantik jihatdan turlicha motivatsiyaga ega hisoblanadi:

- Tabiiy xususiyat asosida. Qizilqum — "qizil rangli qumlar".
- Etnonimik asosda. Qo'ng'iroq, Qarluq.
- Shaxs nomi asosida. Bobur bog'i, Temur Malik. Amir Temur hiyoboni
- Tarixiy-hodisaviy. Shahidon, Chortut.

Joy nomlarining etimologik qatlamini quyidagi talqinda ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston toponimik qatlamlari ko'pincha: qadimgi turkiy, sug'diy, forsiy, arabiy qatlamlardan tashkil topgan bo'ladi.

Toponimlarning etimologiyasi xalq tarixi, migratsiya yo'nalishlari, etnik jarayonlar haqida muhim ma'lumot beradi.

Joy nomlarining kognitiv-assotsiativ xususiyatlari.

Toponimlar inson ongida boy assotsiativ qatlamga ega hisoblanadi:

Toshkent — modernizatsiya, poytaxt, keng ko'chalar.

Xiva — qadimiy madaniyat, Ichan qal'a.

Qoratepa — geologik belgi, qalin tarix v.h.k

Bu assotsiatsiyalar xalqning mental dunyoqarashida va jamyatda joy nomlarining shakllanishida mustahkam o'rin egallaydi.

Toponimlarning lingvokulturologik ahamiyati.

Toponimlar:

- milliy identitetning ramzlari,
- madaniy kodlar tashuvchilari,
- tarixiy-madaniy merosning saqllovchisi,
- mental xaritaning elementlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak toponimik konsept millatning o'z tarixini qanday tasavvur qilishi haqida ma'lumot beradi.

Toponimik konseptni o'rganishning zamonaviy ilmiy yo'nalishlari

a) Kognitiv semantika:

Toponimlarni ong'dagi konseptual struktura sifatida tahlil qiladi.

b) Lingvokulturologiya:

Toponimlarning madaniy konnotatsiyalarini o'rganadi.

c) Etnolingvistika:

Toponimlar va etnik guruhlar munosabatini tahlil qiladi.

d) Geosemiotika:

Hududiy nomlarning ramziy ma'nolarini tadqiq etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqorida amalga oshirilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, toponimik konsept tilshunoslikning kognitiv, lingvokulturologik, semantik va etnolingvistik yo'nalishlarida alohida o'rin tutuvchi murakkab va ko'p qatlamli mental-lisoniy birlikdir. Toponimlarning nafaqat nominativ vazifaga ega bo'lishi, balki ularning xalq ma'naviy xotirasini, tarixiy tajribasini, hududiy identitetini, madaniy stereotiplarini, mifologik tasavvurlarini va ijtimoiy psixologik qarashlarini mujassamlashtirishi ularni konsept sifatida o'rganishni zarur qiladi.

Toponimik konseptning yadro-periferiya modeli shuni ko'rsatadiki, geografik nomning markaziy qismida obyektning real va barqaror belgilari (geografik joylashuv, tabiiy shakl, rasmiy nom) bo'lsa, uning periferiya qismida badiiy-madaniy tasavvurlar, xalq og'zaki ijodi, afsona va rivoyatlar, tarixiy voqealar, etnik jarayonlar, diniy-mifologik tasvirlar, psixologik-assotsiativ mazmunlar joylashadi. Shu tufayli birgina toponim ko'p hollarda butun bir millatning tarixiy jarayonlari, etnik qatlamlari va madaniy qadriyatlari haqida boy ma'lumotni o'zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. Moskva, 2004.
2. Karpenko Yu.A. Toponimika asoslari. Kiev, 2003.
3. Stepanov Yu.S. Konseptlar nazariyasi. Moskva, 1997.
4. Sodiqov M. O'zbek toponimiyasining taraqqiyoti. Toshkent, 2015.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, 1980.
6. Nikolaeva T.M. Semanticheskiy analiz v lingvistike. Moskva, 2000.
7. Humboldt W. von. Sprache und Kultur. Berlin, 1985.
8. Nafasov T. O'zbekiston toponimlari tarixi. Toshkent, 2011.
9. Sirojiddinov Sh. Lingvokulturologiya asoslari. Toshkent, 2020.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000